Mualliflik shartnomasining talablari, o‘ziga xos xususiyatlari



Bugungi kunda O‘zbekistonda mualliflik huquqini muhofaza qilishning zamonaviy huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish sohasida bir qancha ilmiy tadqiqotlar qilinmoqda. Bu borada, ayniqsa, mualliflik huquqini muhofaza qilishning shartnomaviy-huquqiy asoslari va mexanizmlarini rivojlantirish, asarlardan foydalanishda, mualliflik shartnomasida taraflarning huquq va majburiyatlarini qat’iy belgilashda qo‘llanadigan turli vosita hamda usullarni yaxshilash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasi bo‘lmish fan, adabiyot va san’at asarlariga nisbatan, ularning maqsadi va qadr-qimmati, shuningdek ifodalanish usulidan qat’i nazar, tatbiq etiladi. Ular quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- yozma (qo‘lyozma, mashinkalangan yozuv, notali yozuv va h.);
- og‘zaki (omma oldida so‘zlash, omma oldida ijro etish va h.);
- ovozli yoki video yozuv (mexanik, magnitli, raqamli, optik va h.);
- tasvir (rasm, eskiz, manzara, tarh, chizma, kino-, tele-, video- yoki fotokadr va h.);
- hajmli-fazoviy (haykal, model, maket, inshoot va h.);
- boshqa shakllardagi.

Yuqorida sanab o‘tilgan obyektlar mualliflik huquqi bilan himoyalanadi. Ushbu obyektlar bo‘yicha turli shartnomalar tuzilishi mumkin. Ulardan biri mualliflik shartnomasi hisoblanadi.

Mualliflik shartnomasi – muallif o‘z mulkiy huquqlarini boshqa shaxsga mutlaq yoki nomutlaq tarzda o‘tkazishni nazarda tutuvchi shartnomadir. Shu ma’noda, mualliflik shartnomasi huquq egasiga tegishli bo‘lgan huquqlarni muayyan maqsadda (tijoratlashtirish yoki boshqa) boshqa foydalanuvchi shaxsga o‘tkazish uchun tuzilgan shartnoma deyish mumkin.

Mualliflik shartnomasiga binoan muallif foydalanuvchiga haq evaziga, shartlashilgan usulda va belgilangan muddatda asardan foydalanish huquqini berishni, foydalanuvchi esa asardan o‘ziga berilgan huquqqa muvofiq foydalanish va haq to‘lash majburiyatini zimmasiga oladi.

Mualliflik shartnomasi yozma shaklda tuzilishi lozim. EHM uchun dasturlar va ma’lumotlar bazalari nusxalarini sotishda mualliflik shartnomasi, agar uning shartlari (dasturdan va ma’lumotlar bazasidan foydalanish shartlari) dastur yoki ma’lumotlar bazasi nusxalarida tegishli tarzda bayon qilingan bo‘lsa, yozma shaklda tuzilgan deb hisoblanadi.

Mualliflik shartnomasida quyidagilar nazarda tutilishi kerak:

• asardan foydalanish usullari (shartnoma asosida o‘tkaziladigan aniq huquqlar doirasi);

• asardan foydalanishning har bir usuli uchun to‘lanadigan haq miqdori yoki to‘lanadigan haq miqdorini belgilash tartibi, shuningdek, uni to‘lash tartibi hamda muddatlari[1].

Mualliflik shartnomalarida mualliflik huquqining amal qilish doirasi olimlar o‘rtasida ancha munozarali hisoblanadi. Masalan, E. Gavrilovning fikricha, mualliflik huquqi umuman asarlar yaratish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solmaydi, balki allaqachon yaratilgan asardan foydalanish bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi[2].

L. Sorokinaning ta’kidlashicha esa mualliflik huquqi nafaqat allaqachon yaratilgan asardan foydalanish jarayonida, balki uni yaratishdan oldingi munosabatlarni ham tartibga soladi[3].

Qonunchilikka ko‘ra, asardan har qanday shaklda va har qanday usulda foydalanish bo‘yicha mutlaq huquqlar muallifga tegishlidir. Yuridik va jismoniy shaxslar asardan faqat huquq egasi yoki boshqa vakolatli shaxs bilan tuzilgan shartnomaga binoan foydalanishlari mumkin.

Mualliflik shartnomalarining yana muhim shartlaridan biri – shartnomada narx (shartnoma bahosi) ko‘rsatilishi kerak. Ya’ni, foydalanuvchi shartnoma bo‘yicha asardan foydalanishi uchun muallifga to‘lashi kerak bo‘lgan mualliflik to‘lovi foizlarda ko‘rsatilishi kerak. Foydalanuvchi to‘laydigan haq foizlarda ko‘rsatilishi bejiz emas. Chunki daromad oshgani sayin, muallifga to‘lanadigan haq ham oshib borishi kerak.

Muallif o‘z asaridan foydalanishning har bir turi uchun haq olish huquqiga ega. Agar chop etilgan asarning nusxalari ularni sotish yoki mulk huquqini o‘zgacha tarzda boshqa shaxsga o‘tkazish orqali fuqarolik muomalasiga qonuniy kiritilgan bo‘lsa, ularni kelgusida muallifning roziligisiz va unga haq to‘lamasdan tarqatishga yo‘l qo‘yiladi.

Moddiy obyektga bo‘lgan mulk huquqini yoki moddiy obyektga egalik qilish huquqini boshqa shaxsga o‘tkazish shu obyektda aks ettirilgan asarga bo‘lgan biror mualliflik huquqining o‘z-o‘zidan

[1] O‘zbekistonning “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g’risida”gi qonuni. 20.07.2006. 39-modda. https://lex.uz/docs/-1022944.
[2] Гаврилов Э.П. Курс гражданского права. Отдельные виды обязательств. – М., 1954. Стр. 356.
[3] Сорокина Л.В. Автор как сторона авторского договора и договора авторского заказа // Вестник Челябинского государственного университета. Серия: Право. 2008. №22 (123).

boshqa shaxsga o‘tkazilishiga sabab bo‘lmaydi. Shu nuqtayi nazardan, mualliflik shartnomasi fuqarolik-huquqiy munosabatlaridagi hadya, meros, pudrat, haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomalaridan farq qiladi.

Mualliflik shartnomasining turlarini tahlil qilsak, mualliflik shartnomasining keng tarqalgan turi – ***mualliflik huquqini topshirish shartnomasi*** bo‘lishi mumkin. Bunday holda mutlaq huquqlar to‘liq hajmda foydalanuvchiga o‘tkaziladi. Bunda mualliflik huquqi egasi, ya’ni shartnoma asosida mutlaq huquqlarni olgan taraf muallifning asaridan o‘z xohishiga ko‘ra, hech qanday cheklovlarsiz foydalanishi mumkin.

Mualliflik shartnomasining shakllaridan biri mualliflik huquqiga oid ***buyurtma shartnomasidir.*** Buyurtmaning mualliflik shartnomasi bo‘yicha muallif asarni shartnoma shartlariga muvofiq yaratish va uni buyurtmachiga topshirish majburiyatini oladi. Buyurtma asosida tuzilgan mualliflik shartnomasining muhim sharti shundaki, asarni yaratish uchun imtiyozli davrni belgilash imkoniyati mavjud.

Fuqarolik kodeksining 1056-moddasida yuridik va jismoniy shaxslar asardan faqat huquq egasi yoki boshqa vakolatli shaxs bilan tuzilgan shartnomaga binoan, shu jumladan mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomaga binoan foydalanishlari mumkinligi belgilangan.

Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar bilan tuzilgan shartnoma mualliflik shartnomasi hisoblanmaydi. Chunki mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar va mualliflar o‘rtasidagi huquqiy munosabatlar ***topshiriq shartnomasi*** xarakteriga ega bo‘ladi[4].

Topshiriq shartnomasi bo‘yicha bir taraf (vakil) ikkinchi taraf (topshiriq beruvchi)ning nomidan va uning hisobidan muayyan yuridik harakatlarni sodir etish majburiyatini oladi. Vakil tuzgan bitim bo‘yicha huquq va majburiyatlar bevosita topshiriq beruvchida vujudga keladi[5].

Fuqarolik kodeksi 1036-moddasiga muvofiq ***litsenziya shartnomasi*** bo‘yicha intellektual faoliyat natijasiga yoki xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositaga nisbatan mutlaq huquqqa ega bo‘lgan taraf (litsenziar) boshqa tarafga (litsenziatga) tegishli intellektual mulk obyektidan foydalanishga ruxsatnoma beradi.



Ushbu shartnomaning o‘ziga xos xususiyati shundaki, intellektual mulkka bo‘lgan huquqlar litsenziatga cheklangan hajmda beriladi, shuningdek, litsenziatga berilgan huquqlar doirasi litsenziya shartnomasining shartlari bilan belgilanadi. Bundan tashqari, litsenziya shartnomasi sanoat mulki obyektlari doirasida ham tuzilishi mumkin.

Xulosa sifatida ta’kidlaydigan bo‘lsak, mualliflik shartnomalarini tuzuvchi huquq egalari va foydalanuvchilar ushbu shartnomalarni tuzish jarayonida uning huquqiy tabiatini, talablari va o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, boshqa shartnomalar bilan o‘xshash va farqli jihatlarini hisobga olishlari lozim. Bu mualliflar va boshqa foydalanuvchilar o‘rtasida kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarning oldini olishga xizmat qiladi.

Maqsud MUSTAFOYEV,
Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

[4] Yuldashov A., Shanmuka S.N. Raqamli muhitda mualliflik huquqi muhofazasi //Central Asian Academic Journal of Scientific Research. – 2022. – T. 2. – №. 6. 168-181-betlar.
[5] O‘zbekistonning Fuqarolik kodeksi. Ikkinchi qism. O‘zbekiston Oliy Majlisining axborotnomasi, 1996-y., 11-12-son, 1-modda; 11.09.2024-y., 03/24/959/0698-son. https://lex.uz/docs/-180552.